

**HIMOYALANGAN INSHOOTLARDA YETISHTIRILAYOTGAN
POMIDOR NAVLARINING HOSILDORLIGIGA AZOT
ME'YORLARINING TA'SIRI.**

**THE EFFECT OF NITROGEN APPLICATION RATES ON THE YIELD
OF TOMATO VARIETIES GROWN IN PROTECTED STRUCTURES.**

**ВЛИЯНИЕ НОРМ АЗОТА НА УРОЖАЙНОСТЬ СОРТОВ ТОМАТОВ,
ВЫРАЩИВАЕМЫХ В ЗАЩИЩЕННЫХ СООРУЖЕНИЯХ.**

Kulmuxamedova B.A., Tursunov A.I.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti. Samarqand.

e-mail: anvartursunov1992@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada himoyalangan inshootlarda yetishtirilgan pomidor navlarining hosildorligiga azot me'yorlarining ta'sirini o'rganish natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: hosildorlik, pomidor, azot, fiziologik jarayonlar, meva elementlari, biometrik o'lchovlar.

Annotation. This article presents the results of studying the influence of nitrogen norms on the yield of tomato varieties grown in protected structures.

Key words: fertility, tomato, nitrogen, physiological processes, fruit elements, biometric measurements.

Аннотация: В данной статье представлены результаты изучения влияния норм азота на урожайность сортов томатов, выращенных в защищенных сооружениях.

Ключевые слова: урожайность, томата, азот, физиологические процессы, плодэлементы, биометрическое измерения.

Himoyalangan inshootlarda pomidordan yuqori hosil olishda nav va duragaylarni to'g'ri tanlash muhim ahamiyatga kasb etadi. Pomidorning

himoyalangan inshootlarda nav va duragaylariga o'ziga xos talablar qo'yiladi. Ya'ni sermahsul, ertapishar va kasalliklarga chidamli bo'lishi kerak [1].

Hozirgi kunda pomidor taxminan 4,4 million gektar maydonda ekilib, 153 million tonna yalpi hosil yetishtirilmoqda [2, 3]. Pomidor yetishtiruvchi yetakchi davlatlar Xitoy (45,4 million tonna), AQSh (14,14 million tonna), Hindiston (11,15 million tonna), Turkiya (10,7 million tonna), Misr (10,0 million tonna) hisoblanadi. O'zbekistonda asosiy sabzavot ekinlaridan biri hisoblanib, sabzavot ekinlar umumiy maydonining 40-45 % ini pomidor tashkil qiladi [1].

Issiqxonalarda ko'p yetishtiriladigan sabzavotlar ichida pomidor ikkinchi o'rinda turadi. U issiqxonalaming 40-42% maydonini egallaydi va yetishtirilayotgan yalpi issiqxona sabzavot mahsulotining 30% ini tashkil qiladi. Pomidorni issiqxonalarda yetishtirishda maqbul harorat quyoshli kunlarda +25-28°C, bulutli kunlarda +18-20°C, kechasi esa +15-16°C da saqlanishi lozim. Haroratning + 12 C dan pasayishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Pomidor tuproq namligi yuqori bo'lishini talab qiladi, ayniqsa jadal mevalar shakllanayotgan davrda (80-95%). Tuproq namligi 75% dan pasayib ketmasligi kerak [4].

Tadqiqotimiz Samarqand viloyati Samarqand tumanida o'tkazildi. Biz tadqiqotlarimizda pomidorning „Subhidam” va „Nilu F₁“ navidan foydalandik.

Pomidor o'simligining hosildorligiga mineral o'g'itlar ta'sirini aniqlash maqsadida yuqoridagi fikrlarni inobatga olib, tajribada o'rganilgan variantlar bo'yicha o'zgarish dinamikasini o'rgandik (1-jadval).

Tajribalarimizda mineral o'g'itlar me'yorlari turli xil variantlar asosida ta'siri tahlil qilindi. „Subhidam” nazorat variantidagi o'simliklarimizda o'rtacha hosildorlik 16,1 t/ga hosil olindi. N₁₅₀P₁₀₅K₇₅ bilan ishlov berilgan variantlarda bu ko'rsatkich mos ravishda 20,5 t/ga teng ekanligi aniqlandi. Mineral o'g'itlar me'yori N₂₀₀P₁₄₀K₁₀₀ bilan ishlov berilgan variantlarda esa 21,4 t/ga teng ekanligi kuzatildi. N₂₅₀P₁₇₅K₁₂₅ variantimizda 21,8 t/ga teng ekanligi aniqlanib, N₃₀₀P₂₁₀K₁₅₀ ishlov berilgan variantlarimizda eng yuqori hosil olinib nazoratga nisbatan 6,1 t/ga ziyod hosil olindi. O'g'itlar me'yorining oshishi o'simliklarimiz hosildorligining sezilarli darajada oshishiga olib kelmadi.

1-jadval.

Pomidor navlarining hosildorligiga azot me'yorlarining ta'siri. t/ga.

№	NPK	O'rtacha hosildorlik, t/ga	Hosildorligi s/ga	t/ga	
				t/ga	%
		Subhidam			
1.	Nazorat	16,1	161	-	100,00
2.	N ₁₅₀ P ₁₀₅ K ₇₅	20,5	205	4,0	101,99
3.	N ₂₀₀ P ₁₄₀ K ₁₀₀	21,4	214	43,0	121,39
4.	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅	21,8	218	40,0	20,0
5.	N ₃₀₀ P ₂₁₀ K ₁₅₀	22,1	221	58,0	29,0
		Nilu F₁			
1.	Nazorat	17,4	174	-	100,00
2.	N ₁₅₀ P ₁₀₅ K ₇₅	21,6	216	26,5	92,2
3.	N ₂₀₀ P ₁₄₀ K ₁₀₀	22,1	221	23,8	91,9
4.	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅	22,3	223	18,4	91,5
5.	N ₃₀₀ P ₂₁₀ K ₁₅₀	22,8	228	16,2	87,3

“Nilu F₁” navining hosildorlik ko'rsatkichini aniqlaganimizda nazorat variantidagi o'simliklarimizda bu ko'rsatkich 17,4 tonnaga teng ekanligi kuzatildi. N₁₅₀P₁₀₅K₇₅ kg/ga qo'llanilgan variantda esa hosildorlik 21,6 t/ga teng bo'lgan bo'lsa, qolgan variantlarda mos ravishda 22,1; 22,3; 22,8 t/ga teng ekanligi aniqlandi.

O'g'itlar me'yorining oshishishi o'simliklarimiz hosildorligining sezilarli darajada oshishiga olib kelmadi. Shu bilan birga, mineral o'g'itlarning o'simlikning hosildorlik va pishish bosqichlariga ham ijobiy ta'siri mavjud. Himoyalangan inshootlarda pomidor yetishtirishda o'g'it me'yorlarini to'g'ri belgilash hosildorlikni oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. V.I. Zuev, M.M. Adilov, M.E.Amanova, U.I. Akramov. Issiqxonalarda sabzavot va manzarali ekinlarni yetishtirish texnologiyasi. Qishloq xo'jalik texnikumlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent -2022-102-b.
 2. Фадькин Г.Н., Лупова Е.И., Виноградов Д.В., Ушаков Р.Н. Обоснование применения различных форм азотных удобрений под сельскохозяйственные культуры и их влияние на плодородие серой лесной почвы//Вестник Краснодарского ГАУ, 2020, №7. -С.63-71.
 3. Ostanaqulov T.E., Zuyev V.I., Qodirxo'jayev O.Q. Sabzavotchilik.- T.:2009-460b.
 4. Ergasheva G.S. Zayirova D.M. Termiz tumani tuproqlarida pomidor yetishtirishda organik va azotli o'g'itlarni qo'llash me'yorlari va ularni issiqxona sharoitida qo'llash usullari. "Экономика и социум" №12(103)-2 2022.
-
1. Kulmuxamedova Baxtigul Anvar qizi. 2-bosqich magistrant. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Biokimyo instituti O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiya kafedrasida 2-bosqich magistranti. baxtugulkulmuxamedova47@gmail.com +998 50 109 43 44
 2. Tursunov Anvar Ismoilovich. Phd, b.f.f.d. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Biokimyo instituti O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiya kafedrasida assistenti. anvartursunov1992@gmail.com +998 93 3469493